

# Qatnov ushlanib qolmoqda

**2019 9 Dekabr**

Yo'lovchi va kutib oluvchilar uchun **muhim ma'lumot!** Avvalroq xabar qilganimizdek, tuman sababli ikkita aeroportlar havo kemalari qabuli uchun berkitildi va Uzbekistan Airwaysning bir nechta qatnovlari ushlanib qolmoqda. Qo'shimcha qilamizki:

**Namangan-Moskva** yo'nalishi bo'yicha parvoz qiluvchi **HY-619** qatnovining uchishi 8-dekabr soat 19:15 dan 9-dekabr kuni soat 12:00 ga ko'chirildi;

**HY-606 (Moskva- Samarqand)** qatnovining uchishi soat 01:25 dan 16:10 ga (9-dekabr) ko'chirildi;

**HY-42 (Samarqand - Toshkent)** qatnovining uchishi soat 06:25 dan 10:00 ga (9-dekabr) ko'chirildi, Toshkentga qo'nish vaqti soat 10:40 da;

**HY-95 (Toshkent - Namangan)** qatnovining uchishi soat 08:35 dan 10:00 ga (9-dekabr) ko'chirildi.

Ob-havo sharoitlari sabab yuzaga kelgan noqulaylik uchun uzr so'raymiz va tushunishingizdan umidvormiz.